



XORAZM VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

**XORAZM VILOYATIDA  
MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI  
FAOLIYATI  
2023- yilda**



**Madaniyat bu** - inson faoliyati va uning ahamiyatini belgilovchi ramziy vositalar va asarlar yig‘indisidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san’at, me’morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Antropologiyada «madaniyat» atamasi mahsulot va ularning ishlab chiqarilishi, estetik qiymati va shu jarayonlar bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni bildiradi. Bu jihatdan madaniyat san’at, fan va manaviy tizimlarni o‘z ichiga oladi.

**Madaniyat** - bu jamiyat, shaxsning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari tarixiy rivojlanishining ma’lum darajasi. U kishilar hayoti va faoliyatining turli jabhalarida, ular yaratayotgan moddiy va ma’naviy ne’matlarda namoyon bo‘ladi.

**San’at ijtimoiy** ong va inson faoliyatining o‘ziga xos shaklidir. San’at qadimiy tarixga ega bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida inson faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq holda paydo bo‘la boshlagan.


San’at odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, o‘z taraqqiyotining turli bosqichlarida jamiyat a’zolarini ma’lum bir ruhda tarbiyalash, ularning aqliy va hissiy rivojlanishi, shaxsning turli maqsadlari, his-tuyg‘ulari, qiziqishlari va ideallarini ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Estetik tafakkur tarixida san’at go‘zallik qonuniyatlari asosida qandaydir tarzda narsa va hodisalarni aks ettirish va hayotni badiiy tarzda ifodalash g‘oyasiga aylangan.

**Teatr san’ati** azaldan insoniyatning ma’naviy hayotida o‘z o‘rnini egallagan. Ming yillar avval qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy va Qadimgi Yunonistonda teatr dastlab bir, keyin ikki bosqichdan iborat bo‘lib, shundan keyingina jamoaviy san’at turiga aylangan. Spektakl jamoaviy ijod mahsuli bo‘lib, bugungi kunda boshqacha qilib aytganda, rejissyor, dramaturg, aktyor, rassomning ijodiy izlanishlarining mahsulidir. Demak, sahna san’atkorning muttasil ijodkorligini ko‘rsatadi, aktyor zamonaviy san’atga uning ruhi, ijodiy kayfiyati bilan bog‘liq bo‘lgan nimadir qo‘shadi yoki olib tashlaydi.


## XORAZM VILOYATIDAGI MUZEYLAR

Viloyatimizda 2023- yilda jami muzeylar soni 5 tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni 2 taga teng. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, 502,4 ming kishidan iborat bo‘lib, ulardan o‘quvchi va talabalar ulushi 29,8 % ni tashkil.


**Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan muzeylar soni,**  
*( tegishli yil uchun birlikda)*



**Muzeylar sonini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi,**  
*( 2023- yil uchun, birlikda)*



**Muzeyga tashrif buyuruvchilar soni**  
*(tegishli yil uchun, ming kishi)*



Bugungi kunda vilyatimiz muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar mavjud bo‘lib, 2023- yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni 58 174 tasi tashkil etgan. Muzey eksponatlarining 1 134 tasi rassomlik, 978 tasi grafika, 62 tasi haykaltaroshlik, 3 089 tasi amaliy san’at, 22 565 tasi numizmatika, 2 404 tasi arxeologiya buyumlari, 2 601 tasi maishiy va etnografik buyumlar, 9 451 tasi suratlar, 7 940 tasi hujjatlar, va 6 119 tasi boshqa eksponatlardan iborat.

**Muzeylar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari,**  
*2023- yil uchun, birlik*



**Muzeylardagi asosiy fond eksponatlari soni,**  
*2023- yil uchun, birlik*



## XORAZM VILOYATIDAGI TEATRLAR

2023- yilda viloyatmizda jami teatrlar soni 2 tani tashkil etadi. Teatrлarda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) soni 2 526 tani tashkil etdi. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 393,3 ming nafarni tashkil etgan.

### Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan teatrlar soni

(*tegishli yil uchun, бирлик*)

2019- yil → 2020- yil → 2021- yil → 2022- yil → 2023- yil

2

2

2

2

2

### Shahar va tumanlar kesimida

(*2023- yil uchun, birlik*)



1

Urganch sh.

1

Xiva sh.

### Teatrlarning janrlar bo'yicha taqsimplanishi, birlik

1  
musiqiy




1

qo'g'irchoq


## XORAZM VILOYATIDAGI TEATRLAR

**Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni**  
(tegishli yil uchun, ming kishi)




2023- yilda jami teatrlar soni 2 tani tashkil etib, ushuu teatrлarda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) 2 526 tani tashkil etdi. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 393,3 ming nafarni tashkil etgan.

**Teatrlarda namoyish etilgan spektakllar soni**  
(tegishli yil uchun, birlik)




**Shahar va tumanlar kesimida spektakllar (tomoshalar) soni,**  
(2023 -yil uchun, birlikda)

**Urganch shahri    Xiva shahri**



**Teatrlarga tashrif buyurgan tomoshabinlar sonini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi**  
(2023- yil uchun, ming kishi)




## XORAZM VILOYATIDA KONSERT TASHKILOTLARI


Viloyatimizda 2023- yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 2 ta bo'lib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 taga oshgan. Konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 2023- yilda 287 tani tashkil etgan. Shuningdek, tinglovchilar soni jami 98,3 ming nafarni tashkil etdi.

### 2023- yilda konsert tashkilotlari faoliyati


**Konsert tashkilotlari soni  
(birlik)**



**Konsertlar soni  
(birlik)**



**Xizmat ko'rsatilgan  
tinglovchilar soni  
(ming kishi)**



**2023- yilda faoliyat turlari bo'yicha  
konsert tashkilotlari, birlik**



1  
filarmoniya

1  
mustaqil  
jamoalar

1      Urganch shahar

1      Urganch tuman

## XORAZM VILOYATIDA MADANIYAT VA DAM OLİSH İSTIROHAT BOĞ'LARI

2023- yilda viloyatimizda jami 15 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqsimlanganida, eng ko'p madaniyat va istirohat bog'lari Urganch shahrida (3 ta), Xiva sahrida va Bog'ot tumanida (2 ta) joshlashganligini ko'rsatdi. 2023- yilda istirohat bog'larining umumiy maydoni 166,4 gettarga teng bo'lib, ularda jami attraksionlar soni 58 tani va jami tashrif buyurganlar soni 91,6 ming kishini tashkil etgan.



## Statistik ko'rsatkichlarga izoh

**Madaniyat** — inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

**Madaniy meros** bu — xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar, joylar, obyektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

**Madaniy meros obyektlari** — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

**Moddiy madaniy meros obyektlari** — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

**Nomoddiy madaniy meros obyektlari** — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

**Diqqatga sazovor joylar** — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixiy markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.



## Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul: Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Xorazm viloyati statistika  
boshqarmasi



Manzil: Urganch sh.,  
Al-Xorazmiy ko'chasi, 93-uy

tel.: +99862 224-65-21



e-mail: xorazmstat@umail.uz



[www.xorazmstat.uz](http://www.xorazmstat.uz)



[facebook.com/xorazmstataxborot](https://facebook.com/xorazmstataxborot)